



O'ZBEKISTON ME'MORIY YODGORLIKLARI TARIXINING YORITILISHIDA ARXIV HUJJATLARINING AHAMIYATI

Xo'jageldiyev Ibodulla Mamaradjab o'g'li

+998996799697

ibodulla1722@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7192537>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 13th October 2022

KEY WORDS

Milliy arxiv, Samarqand, Buxoro, Xorazim, M.Ye.Masson, G.A.Pugachenkova, B.N. Zasiqinlar, Ichan qal'a darvozalari, qal'a devori

ABSTRACT

Asrlar davomida o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan me'moriy meros namunalarini o'rganish masalasi qator soha mutaxassislarini qiziqtirgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, respublikamizning Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarda bunyod etilgan tarixiy obidalar tarixini o'rganishga mutaxassislar tomonidan alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu tarixiy shaharlarning yubileylari YUNESKO bilan hamkorlikda nishonlangani ularning jahon moddiy madaniyati durdonalari qatoriga kiritilganidan dalolat beradi. Ularda joylashgan me'moriy obidalar tarixini yoritishda o'tgan asrda yaratilgan arxiv hujjatlari muhim manbaviy asos hisoblanadi. Mavzuga doir arxiv hujjatlari ahamiyatini ochib berish hujjatshunos va arxivshunos mutaxassislar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston me'moriy yodgorliklarining o'rganilishi masalasi Milliy arxivida saqlanayotgan O'rta Osiyo qadimiyat yodgorliklari qo'mitasi (Sredazkomstaris) fondi hujjatlarida ham keng yoritilgan. Ularning aksariyat qismi milliy me'moriy yodgorliklarning XX asr boshlarida o'rganilishi masalasiga bag'ishlangan. Quyida nomlari keltirib o'tilgan arxiv hujjatlari yodgorliklarning saqlanganlik holati, ularda olib borilgan tarixiy, arxeologik hamda san'atshunoslikka oid ilmiy-tadqiqotlar, tiklash hamda ta'mirlash ishlari tavsilotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan. Xususan, ushbu fondga O'zbekistonning Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlari shaharlaridagi yodgorliklar tarixini o'rganish, ularni muhofaza qilish va

yodgorliklardan foydalanish masalalariga doir hujjatlar jamlangan. Fond hujjatlarining aksariyat qismi o'rganilgan tarixiy yodgorliklarning turli davrlardagi suratlari, jumladan, tiklash-ta'mirlash ishlaridan avvalgi va keyingi davrlardagi holatlari aks etgan foto hujjatlar bilan boyitilgani e'tiborga molikdir.

Fondga shuningdek, qo'mita tadqiqotchilarining nashr ettirilmay qolgan maqolalarining qo'lyozmalari ham saqlanib qolgan. Ularda mualliflarning O'zbekiston milliy me'moriy yodgorliklarini o'rganish borasida olib borgan ishlari va o'ziga xos fikr mulohazalari o'z aksini topgan.

Bundan tashqari, ushbu arxivda saqlanayotgan bir qator shaxsiy arxiv fondlari hujjatlari ham milliy me'moriy yodgorliklarning o'rganilishi masalasini



yoritishda katta ahamiyatga egadir. Xususan, M.Y.Masson, G.A.Pugachenkova, B.N.Zasipkin, Y.G.G'ulomov va boshqa olimlarning faoliyati natijasida yaratilgan arxiv hujjatlari O'zbekiston me'moriy yodgorliklari manbashunosligida muhim o'rin tutadi.

M.Ye.Masson, G.A.Pugachenkova va B.N. Zasipkinlarning shaxsiy arxiv fondlari hujjatlari asosan sovet davrida Samarqand va Buxoro shaharlarida joylashgan tarixiy-me'moriy yodgorliklarni o'rganish, ularni tiklash-ta'mirlash ishlari tarixini yoritishga bag'ishlangan. B.N. Zasipkinning O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklarini o'rganishga bag'ishlangan arxiv hujjatlarining deyarli hammasida o'rganilgan me'moriy yodgorliklar to'g'risida qisqacha tarixiy ma'lumotnoma, ularning tavsifi, qurilish rejasi, chizmalari, fotosuratlarini ilova qilingani e'tiborga molikdir. Ushbu hujjatlar jamlanmasi yodgorliklarda olib borilgan tadqiqot jarayonlarini jonli tasavvur etish imkoniyatini oshiradi. Shu sabab ular mutaxassis olimlar tomonidan O'zbekiston me'moriy yodgorliklarining o'rganilishiga oid qimmatli tarixiy manba sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Milliy arxivining shaxsiy arxiv fondlari doirasida saqlanayotgan mavzuga oid hujjatlarni o'zida jamlagan navbatdagi fond mashhur arxeolog olim M.Y.Masson hamda san'atshunos olim G.A.Pugachenkovalarga tegishlidir. O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklarining o'rganilishida muhim hissa qo'shgan mazkur mualliflar qalamiga mansub arxiv hujjatlari keng qamrovli tadqiqot ishlari natijasida yaratilgani bilan e'tiborga molikdir. Fond hujjatlari O'zbekiston me'moriy merosining arxeologik hamda san'atshunoslik nuqtai-nazaridan o'rganilishi masalasini yoritib beradi.

Y.G.G'ulomov shaxsiy arxiv fondi hujjatlari Xorazm vohasi yodgorliklarning XX asr birinchi yarmidagi saqlanganlik holati va sovet tuzumining milliy madaniy meros namunalariga munosabati masalasini yoritishda katta ahamiyatga

egadir. Y.G.G'ulomov tomonidan vohaning quyidagi tarixiy yodgorliklari ilk bora o'rganilgan va ular to'g'risida tarixiy ma'lumotnomalar tuzilgan: Ichan qal'a darvozalari, qal'a devori, Ko'hna ark, Toshhovli saroylari, Oqshayx bobo qal'asi, Madaminxon madrasasi, Olloqulixon saroyi va madrasasi, Sherg'ozixon madrasasi, Qutlimurod madrasasi, To'rt Shaxboz sardobasi, Anushaxon masjidi-Oqmachit, Saidboy masjidi va minorasi, Islomxo'ja minorasi, Pahlovon Mahmud maqbarasi, Masjidi Kalon ustunlari, Said Alovuddin maqbarasi, Shayx Muxtor Vali maqbarasi hamda xonaqosi to'g'risidagi ma'lumotnomalardir.

Ushbu arxiv hujjatlarida o'rganilgan yodgorliklarning tarixi, ular to'g'risidagi afsona va rivoyatlar, yodgorliklarning o'ziga xos qurilish an'analari, uslubi, rejasi, o'lchamlari, me'moriy bezaklari va boshqalarga oid qimmatli materiallar jamlangan. Ushbu arxiv hujjatlari tarixchi, arxeolog, san'atshunos hamda arxitektor olimlar tomonidan yaratilgan bo'lib, o'rganilayotgan me'moriy yodgorliklarning turli tomonlarini yoritishda tarixiy manba sifatida xizmat qilishi bilan katta ahamiyatga egadir.

XX asrda O'zbekiston me'moriy obidalarining o'ziga xos tomonlarini yoritgan tadqiqotlar natijada qiziqarli faktik materiallar jamlangan. Ular hozirda O'zbekiston Milli arxivi (O'z MA), O'zbekiston Respublikasi kino-foto-fono hujjatlari Milliy arxivi (O'zR KSOHMA), O'zbekiston Turizm va sport vazirligi huzuridagi "Madaniy meros departamenti" arxivining (Arxiv GlavNPU) tegishli fondlarida saqlanmoqda. Misol uchun,

- O'zMA'dagi SUARDEL, SREDAZKOMSTARIS, UZKOMSTARIS va O'zbekiston arxitektorlari ittifoqi, O'zbekiston me'moriy yodgorliklari tarixini o'rganishga katta hissa qo'shgan olimlar V.L.Vyatkin, B.N.Zasipkin, M.Y.Masson, G.A.Pugachenkova, L.Y.Mankovskaya, S.N.Polupanov, L.I.Rempel va boshqalarning



shaxsiy arxiv fondlarida saqlanayotgan mavzuga tegishli arxiv hujjatlari;

O'z KSOHMA'dagi O'zbekiston me'moriy yodgorliklarining turli davrlarda tushirilgan fotosuratlar hamda Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek madrasasi va rasadxonasining tiklanish jarayoniga oid kino hujjatlar jamlanmasi;

- GlavNPU fondida saqlanayotgan Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Toshkent shahri me'moriy yodgorliklari tavsifi, ularning o'rganilishiga oid arxiv hujjatlar majmuasini ko'rsatib o'tish mumkin. Ushbu arxiv hujjatlarida mazkur yodgorliklar tarixi, ular to'g'risidagi afsona va rivoyatlar, yodgorliklarning o'ziga xos xususiyatlari: qurilish an'analari, uslubi, rejasi, o'lchamlari, me'moriy bezaklari va boshqalarga oid qimmatli materiallar jamlangan. Ular mutaxassis olimlar tomonidan yaratilgan bo'lib, o'rganilayotgan me'moriy yodgorliklar tarixiga oid birlamchi tarixiy manba sifatida katta ahamiyatga egadir.

Ushbu hujjatlar orasida O'zbekiston kino-foto-fono hujjatlari Milliy arxivi hujjatlari o'ziga xos bo'lib, milliy me'moriy yodgorliklar tarixini ko'rgazmali tarzda yoritib berishi bilan e'tiborga molikdir.

Mazkur arxivda O'zbekiston me'moriy yodgorliklari tarixini yorituvchi foto hujjatlar boshqalariga nisbatan ancha ko'p bo'lib, tegishli hujjatlar jamlanmasi albomlar shaklida jamlangan. Jumladan arxivda O'zbekiston tarixiy shaharlaridan: Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qarshi, Termiz, Marg'ilon, Andijon, Namangan shaharlari nomlari bilan atalgan albomlar mavjud. Ushbu albomlar tegishli ravishda ko'rsatilgan nom ostidagi shaharlar va ularda bunyod etilgan tarixiy inshootlarning turli davrlardagi suratlari, inshootlarning chizmalari, o'lchamlari va ularga berilgan izohlardan iborat jamlanmalardir.

O'zbekiston kino-foto-fono hujjatlari Milliy arxivi hujjatlari orasida kino hujjatlari mavzu manbashunosligida alohida o'rin tutadi. Arxiv hujjatlari orasida Samarqand me'moriy yodgorliklari, xususan, Mirzo Ulug'bek madrasasi va rasadxonasining o'rganilishi, madrasaning yiqilib tushish darajasiga kelib qolgan ikki minorasining tiklanish jarayoni aks etgan kino hujjatlar fikrimizga dalil bo'ladi.

References:

1. Бухара. Албом. 3.1./3.4./1-4.5.1. – Арк.
2. Бухара. Албом. 3.4.2.-4.5.1. – Ансамбл Бахауддин Накшбанд.
3. Бухара. Албом. 3.4.8.-4.5.1./а. – Медресе Мирза Улуғбека.
4. Бухара. Албом. 3.4.8.-4.5.1./а. – Медресе Мирза Улуғбека в Гиждуване.
5. Бухара. Албом. 3.4.8.-4.5.1. – Мавзолей Саманидов.
6. Бухара. Албом. 3.4.9.-4.5.1. – Ансамбл Ляби Ҳовуз.
7. Самарканд. Албом. 4.-4.5.1. – Мечет Бибиханым.
8. Самарканд.3.4.5.-4.5.1. – Мавзолей Бибихоным.
9. Самарканд.3.1./3.4./1-4.5.1. – Ансамбл Регистан.
10. Самарканд. 3.4.2.-4.5.1. – Ансамбл Шахи-Зинда.
11. И-71-фонд – Туркистон ҳаваскор археологлари тўғараги (ТКЛА) фонди.
12. P-394-фонд – Средазкомстарис фонди.
13. P-1591-фонд – В.Л.Вяткиннинг шахсий архив фонди.
14. P-2773-фонд – М.Е.Массон ва Г.А.Пугаченковаларнинг шахсий архив фонди.



15. P-2406-фонд – Б.Н.Засыпкиннинг шахсий фонди.
16. P-2883-фонд. – Я.Ғ.Ғуломовнинг шахсий архив фонди.